



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



HIKMATOV Shuhrat Shabanovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

NOGIRONLIKNING XALQARO HUQUQIY NORMALARGA AYLANISHI: XAYRIYADAN HUQUQQA

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): HIKMATOV Sh.Sh.
Nogironlikning xalqaro huquqiy normalarga aylanishi: xayriyadan huquqqa // Yurist
axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2025) B. 120-125.

5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asrda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi o'rni, ularning huquqiy maqomi va ijtimoiy himoya tizimining shakllanish jarayoni tarixiy, huquqiy hamda sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi nogironlik tushunchasining industrial inqilob davridan boshlab BMTning 2006-yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" sigacha bo'lgan evolyutsiyasini ochib berish, shu bilan birga ushbu jarayondagi asosiy tendensiyalar, ziddiyatlar va islohotlarni aniqlashdan iborat. Asarda yevgenika siyosatining inson qadriga salbiy ta'siri, jahon urushlarining nogironlik muammosini "milliy mas'uliyat" sifatida anglashga olib kelgani, fuqarolik huquqlari harakati ta'sirida teng huquqlilik g'oyalarining rivojlanishi hamda inklyuziv ta'lim konsepsiyasining ilmiy asoslanishi keng yoritilgan. Muallif nogironlar huquqlarini ta'minlash jarayoni faqat huquqiy bazani yaratish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy ongni o'zgartirish, madaniy stereotiplarni yo'qotish va davlat siyosatini inson huquqlariga moslashtirishni ham talab etganini ta'kidlaydi. Ilmiy yangilik sifatida, maqolada nogironlar huquqlarining tarixiy shakllanishi zamonaviy inson huquqlari tizimi bilan ilk bor kompleks ravishda bog'lab tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilish tizimini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari, ijtimoiy integratsiya, yevgenika, rehabilitatsiya, inklyuziv ta'lim, xalqaro huquq, Salamanka deklaratsiyasi.

HIKMATOV Шухрат Шабанович

Самостоятельный соискатель
Правоохранительной академии Республика Узбекистан

ПРЕВРАЩЕНИЕ ИНВАЛИДНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ НОРМЫ: ОТ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНОСТИ К ПРАВУ

АННОТАЦИЯ

В статье представлен историко-правовой и социологический анализ формирования правового и социального статуса лиц с инвалидностью в XX веке. Цель исследования заключается в раскрытии эволюции понятия инвалидности от эпохи промышленной революции до принятия Конвенции ООН о правах инвалидов в 2006 году, с акцентом на ключевые тенденции, противоречия и реформы, определившие развитие этой сферы. В работе детально рассматривается негативное влияние евгенической политики на восприятие инвалидности, роль мировых войн в осознании инвалидности как "национальной ответственности", влияние движения за гражданские права и развитие концепции инклюзивного образования. Автор подчёркивает, что процесс институционализации прав инвалидов требовал не только законодательных изменений, но и глубоких культурных и

социальных преобразований, направленных на изменение общественного сознания и устранение дискриминационных стереотипов. Научная новизна исследования заключается в системном анализе исторического становления прав инвалидов и их связи с современными стандартами прав человека, что ранее в отечественной науке не освещалось столь комплексно. Полученные результаты позволяют определить ключевые барьеры, мешающие социальной интеграции лиц с инвалидностью, и могут служить теоретико-практической основой для дальнейшего совершенствования законодательства Узбекистана в соответствии с международными принципами защиты прав инвалидов.

Ключевые слова: права инвалидов, социальная интеграция, евгеника, реабилитация, инклюзивное образование, международное право, Саламанкская декларация.

SHUKHRAT Khikmatov Shabanovich

Independent researcher of the Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan

THE TRANSFORMATION OF DISABILITY INTO INTERNATIONAL LEGAL NORMS: FROM CHARITY TO RIGHTS

ANNOTATION

This article provides a historical, legal, and sociological analysis of the formation of the legal and social status of persons with disabilities during the twentieth century. The main objective of the study is to trace the evolution of the concept of disability from the Industrial Revolution to the adoption of the 2006 UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities, identifying the principal trends, contradictions, and reforms that have shaped this transformation. The article examines the harmful influence of eugenic policies on the perception of disability, the impact of the World Wars in framing disability as a matter of “national responsibility,” the role of the civil rights movement in promoting equality, and the rise of the concept of inclusive education. The author argues that the institutionalization of disability rights required not only legal reforms but also profound social and cultural transformations aimed at changing public attitudes and eliminating discriminatory stereotypes. The scientific novelty of this study lies in its comprehensive and systematic exploration of the historical development of disability rights and their interconnection with the modern human rights framework – an approach not previously undertaken in regional scholarship. The findings provide a theoretical and practical foundation for improving the protection of the rights of persons with disabilities in Uzbekistan in accordance with international standards and for advancing inclusive policies that ensure equal participation in all spheres of society.

Keywords: disability rights, social integration, eugenics, rehabilitation, inclusive education, international law, Salamanca Declaration.

XX asrning birinchi yarmi nogironlarning jamiyatdagi mavqei va ularning huquqlarini himoya qilishda muhim o'zgarishlarga boy islohotlar davri bo'ldi, lekin bu davrdagi islohotlar murakkab va ziddiyatli jarayonlar bilan kechdi. Sanoat inqilobining oqibatlar, jahon urushlari va ilmiy-ijtimoiy taraqqiyotlar nogironlikka munosabatni qayta ko'rib chiqishga turtki bo'ldi. Bu davrda nogironlik tushunchasi tibbiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan yanada chuqurroq o'rganildi, biroq yevgenika kabi salbiy tendensiyalar va institutsional to'siqlar ularning huquqlariga jiddiy xavf soldi. Bizning fikrimizcha, XX asr boshidagi islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi o'rnini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlar bo'lgan, lekin ular ko'pincha qisman va ziddiyatli bo'lib, ularning to'liq ijtimoiy integratsiyasiga to'sqinlik qildi.

XX asr boshida yevgenika harakati nogironligi bo'lgan shaxslarga munosabatda muhim, lekin salbiy rol o'ynadi. Yevgenika, “inson irsiyatini yaxshilash” maqsadida genetik nuqsonlarni yo'q qilishga qaratilgan sun'iy-ilmiy nazariya sifatida, nogironligi bo'lgan shaxslarni “ijtimoiy yuk”

sifatida ko'rdi va ularning reproduktiv huquqlarini cheklashga urindi. Masalan, AQSHda 1907-yilda Indiana shtatida qabul qilingan qonun aqliy nuqsonga ega shaxslarni majburiy sterilizatsiya qilishga ruxsat bergan, bu esa keyinchalik boshqa shtatlarda ham qo'llanilgan [1, B.165].

Debora Koenning ta'kidlashicha, Birinchi jahon urushi nogironlikni "milliy mas'uliyat" sifatida ko'rishga olib keldi, lekin ushbu yordam ko'pincha veteranlarga xos bo'lib, nogironlikning boshqa toifalarini e'tibordan chetda qoldirdi [2, B.196-198]. Biz bu qarashga qisman qo'shilamiz, chunki urush veteranlariga e'tibor qaratilishi nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy sharoitlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, lekin ushbu yordamning cheklangan doirasi boshqa nogironlik toifalarning muammolarini yechishga xizmat qilmagan. Bizning fikrimizcha, urushdan keyingi reabilitatsiya dasturlari nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy integratsiyasi uchun muhim bosqich bo'lgan, lekin ularning qamrovi va samaradorligi ko'pincha yetarli bo'lmagan.

XX asr boshidagi eng muhim muammo nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda to'liq ishtirok etishini ta'minlashdagi institutsional va ijtimoiy to'siqlar edi. Yevgenika harakati ularning inson huquqlariga jiddiy tahdid soldi, jahon urushlari esa nogironlikni faqat veteranlar kontekstida ko'rishga olib keldi. Lenard Devisning ta'kidlashicha, XX asr boshida nogironlik "normallik" tushunchasiga nisbatan muayyanlashtirilgan bo'lib, bu ularning jamiyatdan chetlanishiga sabab bo'lgan [3, B.39]. Biz bu farazga to'liq qo'shilamiz, chunki "normallik" tushunchasi nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy stigmatizatsiyasi va ularning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini cheklashda muhim rol o'ynadi.

XX asr boshidagi eng zarur masala nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda to'liq ishtirok etishini ta'minlash uchun huquqiy va ijtimoiy tuzilmalarning yetishmasligi edi. Ijtimoiy himoya tizimlari va urushdan keyingi reabilitatsiya dasturlari muayyan darajada yordam bergan bo'lsa-da, ular ko'pincha cheklangan va qisman bo'ldi. Irina Metzlerning ta'kidlashicha, XX asr boshida nogironligi bo'lgan shaxslarga munosabatda xayriya va stigmatizatsiya orasidagi ziddiyat yaqqol ko'ringan, bu esa ularning jamiyatdagi mavqeini murakkablashtirgan [4, B.45.]. Biz bu qarashga qisman qo'shilamiz, chunki xayriya asosidagi yordam nogironligi bo'lgan shaxslarga muayyan darajada yordam bergan bo'lsa-da, ularning to'liq ijtimoiy tenglikka erishishiga to'sqinlik qildi.

G'arbiy Yevropada "nogiron" atamasi, avvalo, harbiy xizmatchilarga xos bo'lib, kasallik yoki yarador bo'lish oqibatida harbiy xizmatni o'tashga yaroqsiz, deb topilgan harbiylar xizmatni o'tashni davom ettirishi uchun fuqarolik-ma'muriy lavozimlarga yo'naltirilgan holatga nisbatan qo'llanilgan. Fransiyada ushbu atama armiyada harbiy xizmatni o'tagan va davlat oldida xizmat ko'rsatgan, xizmat davomida yaralangan, jarohat olgan yoki qarigani bois harbiylikka yaramay qolgan ayrim jangchilarga nisbatan qo'llanilgan. Rimda esa nogironligi bo'lgan shaxslarga yer uchastkalari, janglarda qo'lga kiritilgan o'ljadan ulush ajratilgan, va maxsus pul ta'minoti belgilangan. Salomatligida muammosi mavjud bo'lgan ayrim shaxslar odatda, institutsional muassasalar (g'aribxona, nogironlar uylari)da saqlanib, u yerlarda bunday fuqarolar oziq-ovqat va boshpana bilan ta'minlangan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, umuminsoniy va aholining bu toifadagi alohida kategoriyalari haq-huquqlarini shakllantirish va ularni himoyalash orqali "nogiron" (invalid) tushunchasi shakllanib, u jismoniy va aqliy hayot faoliyatida muayyan cheklanishlarga ega barcha kishilarga nisbatan qo'llanila boshlandi [5, B.18].

Darhaqiqat, XX asr boshidagi islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi mavqeini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlar bo'ldi, lekin yevgenika, institutsional to'siqlar va cheklangan ijtimoiy himoya tizimlari ularning to'liq integratsiyasiga to'sqinlik qildi. Jahon urushlari nogironlikni milliy mas'uliyat sifatida ko'rishga olib keldi, lekin ushbu yordam ko'pincha veteranlar bilan cheklandi. Bizning fikrimizcha, ushbu davrdagi o'zgarishlar nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishning keyingi rivojlanishi uchun muhim asos bo'ldi, lekin ularning amalga

oshirilishi ko'pincha qisman va ziddiyatli bo'ldi. Shu bilan birga, bu davrdagi islohotlar, garchi muhim bo'lsa-da, nogironligi bo'lgan shaxslarning to'liq ijtimoiy va iqtisodiy tenglikka erishishi murakkab bo'lgan.

O'tgan asrning 2-yarmida nogironligi bo'lgan shaxslar o'zlarining huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok eta boshladi, bu esa ularning jamiyatdagi o'rnini qayta ko'rib chiqishga turtki bo'ldi. Biroq, bizning fikrimizcha, bu davrdagi islohotlar muhim yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, institutsional to'siqlar va stigmatizatsiya kabi muammolar ularning to'liq ijtimoiy tenglikka erishishiga to'sqinlik qildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda nogironlarning jamiyatdagi mavqeiga muhim ta'sir ko'rsata boshlandi. Urush oqibatida ko'plab shaxslar jismoniy va aqliy nuqsonlar bilan qaytdi, bu esa davlatlarni rehabilitatsiya va ijtimoiy ta'minot tizimlarini kengaytirishga majbur qildi. Masalan, AQSHda 1943-yilda "Vocational Rehabilitation Act" qabul qilindi, bu nogiron veteranlarga kasb-hunar ta'limi va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini taqdim etdi [6, B.330]. Tadqiqotchi Duglas Baynsning ta'kidlashicha, urushdan keyingi rehabilitatsiya dasturlari nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy integratsiyasiga xizmat qilgan, lekin ular asosan veteranlarga qaratilgan bo'lib, nogironlikning boshqa toifalarini e'tibordan chetda qoldirgan [7, B.33].

1960-yillarda AQSHda fuqarolik huquqlari harakati, xususan, irqiy va gender tenglik uchun kurash, nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z huquqlarini talab qilishiga ilhom berdi. Masalan, 1962-yilda Ed Roberts, og'ir jismoniy nuqsonga ega bo'lgan talaba, Kaliforniya universitetiga qabul qilinib, "Independent Living Movement" (Mustaqil yashash harakati) asoschilaridan biriga aylandi [8, B.95].

Qonunchilik islohotlari XX asr o'rtasida nogironlar huquqlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. 1973-yilda AQSHda "Rehabilitation Act"ning 504-moddasi qabul qilindi, bu federal moliyalashtiriladigan dasturlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan diskriminatsiyani taqiqladi. Bu qonun AQSHda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda muhim bosqich bo'ldi va keyinchalik 1990-yildagi "Americans with Disabilities Act" qabul qilinishiga asos yaratdi. Richard Skotchning ta'kidlashicha, 504-modda fuqarolik huquqlari harakatining nogironligi bo'lgan shaxslar uchun kengaytirilishi bo'lib, ularning jamiyatdagi to'liq ishtirokini ta'minlashga xizmat qilgan [9, B.53].

Kim Nilsenning ta'kidlashicha, XX asr o'rtasida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari harakati fuqarolik huquqlarining kengroq kontekstida rivojlangan, bu ularga boshqa marginallashtirilgan guruhlar bilan ittifoqlashish imkonini bergan [10, B.341]. Biz bu qarashga to'liq qo'shilamiz, chunki nogironlarning fuqarolik huquqlari harakati irqiy va gender tenglik uchun kurash bilan uzviy bog'liq bo'ldi. Biroq, bizning fikrimizcha, Nilsenning tahlilida global miqyosdagi parallel harakatlar, masalan, BMTning inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va ularning nogironligi bo'lgan shaxslarga ta'siri yetarli ko'rib chiqilmagan. Bizning nazarimizda, BMTning 1948 yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining global miqyosda muhokama qilinishiga asos yaratdi.

XX asr oxiri va XXI asr boshida BMT va boshqa xalqaro institutlar nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ilgari surishda muhim rol o'ynadi, xususan, 2006-yilda BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi qabul qilinishi tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu tarixiy bosqichni chuqur tahlil qilish nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining zamonaviy rivojlanishini tushunish va kelajakdagi islohotlar uchun asos yaratishda muhim ahamiyatga ega.

XX asr oxirida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining xalqaro miqyosda e'tirof etilishi muhim bosqich bo'ldi. 1981-yilda BMT Bosh Assambleyasi "Nogironlar uchun imkoniyatlar yili" deb e'lon qildi, bu esa global miqyosda ularning muammolariga e'tibor qaratishga olib keldi [11, B.95]. Bu tashabbus 1983–1992-yillarda "Nogironlar o'n yilligi" sifatida davom ettirilib, ko'plab davlatlarda qonunchilik islohotlariga turtki bo'ldi [12, B.335]. Tereza Degenerning ta'kidlashicha,

BMTning ushbu tashabbuslari nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida ko'rishga yo'l ochdi [13, B.35]. Biz bu qarashga to'liq qo'shilamiz, chunki BMTning tashabbuslari nogironligi bo'lgan shaxslarning muammolarini global kun tartibiga kiritdi va ularning huquqlarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga asos bo'ldi.

BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi 2006-yilda qabul qilinishi nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. Konvensiya nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha asosiy huquqlari, jumladan, ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ishtirokka bo'lgan huquqlarini kafolatlashga qaratilgan edi. Rozmari Keyessning ta'kidlashicha, ushbu Konvensiya nogironligi bo'lgan shaxslarni "yordamga muhtoj" toifa sifatida emas, balki o'z huquqlarini talab qila oladigan faol subyektlar sifatida ko'rildi. Biz bu farazga to'liq qo'shilamiz, chunki mazkur Konvensiya nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z taqdirini o'zi belgilashi va jamiyatda to'liq ishtirok etishi uchun muhim huquqiy asos yaratdi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning o'zlari tashkil etgan nodavlat-notijorat tashkilotlar global miqyosda ularning ovozini eshittirishga xizmat qildi. Ushbu harakatlar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda faol subyektga aylantirgan bo'lsa-da, iqtisodiy tengsizlik va stigmatizatsiya ularning to'liq integratsiyasiga to'sqinlik qildi. Biroq, bizning nazarimizda, Rasselning tahlili mazkur faoliyatning madaniy va siyosiy o'zgarishlarga ta'siriga yetarli e'tibor bermadi. Bizning fikrimizcha, DPI kabi tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi qarashlarini o'zgartirishda muhim qadamlar qo'ydi.

Sanoat inqilobidan boshlab XX asr oxirigacha bo'lgan davrda nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga bo'lgan munosabat tibbiy, xayriya va segregatsiya asosidagi yondashuvlardan boshlanib, inklyuziv ta'lim tushunchasigacha asta-sekin o'zgardi. Bu davrda ta'lim tizimidagi islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi mavqeini yaxshilashga xizmat qildi, lekin institutsional to'siqlar, stigmatizatsiya va resurslarning yetishmasligi ularning to'liq ta'lim olishiga to'sqinlik qildi. Bizning fikrimizcha, ta'limga erishishdagi tarixiy rivojlanish nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini mustahkamlashda muhim bosqich bo'lgan, lekin ushbu jarayondagi muammolar, xususan, inklyuziv ta'limning to'liq amalga oshirilmaganligi bugungi kunda ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ushbu tarixiy kontekstni chuqur tahlil qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga erishishidagi zamonaviy muammolarni tushunish va ularni hal qilish uchun muhim asos bo'ladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha jamiyatdan izolyatsiya qilingan maxsus muassasalarda, masalan, ko'zi ojizlar yoki karlar uchun maxsus maktablarda ta'lim olgan. Masalan, Fransiya 1784-yilda Valentin Gayuy tomonidan ko'zi ojizlar uchun tashkil etilgan maktab ta'lim tarixida muhim qadam bo'lgan [14, B.1615].

XX asr oxiri va XXI asr boshida inklyuziv ta'limning global miqyosda rivojlanishi nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga erishishida muhim bosqich bo'ldi. 1994-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Salamanka deklaratsiyasi" inklyuziv ta'limning asosiy prinsiplarini belgilab, barcha bolalarning umumiy ta'lim tizimida o'qishi zarurligini ta'kidladi [15, B.671].

XX asrdagi eng zarur masala ta'lim tizimida nogironlarning to'liq ishtirokini ta'minlash uchun huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning uyg'unlashuvi edi. Inklyuziv ta'limning rivojlanishi va Salamanka deklaratsiyasi kabi tashabbuslar buyicha kunlar muhim qadam bo'ldi, lekin ularning amalga oshirilishi ko'pincha sekin va cheklangan bo'ldi. Biroq, bizning nazarimizda, ko'pgina olimlar, xususan, Longmorning tahlili asosan AQSH kontekstiga e'tibor bergan [16, B.345], lekin Yevropa va boshqa mintaqalardagi ijtimoiy muhofaza tizimlarining o'ziga xos xususiyatlariga, masalan, Skandinaviya davlatlaridagi universal ta'minot modellariga yetarli to'xtalmagan. Bizning fikrimizcha, Skandinaviya modellari nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy muhofazasida inklyuziv yondashuvni qo'llagan, lekin ularning global miqyosda qo'llanishi moliyaviy va institutsional cheklovlar bilan murakkablashgan.

Xullas, nogironlik va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish konsepsiyasining shakllanishi jahon jamiyatidagi ijtimoiylashuv va insonparvarlik jarayonlarining tarixiy zaruratidir. Ushbu jarayon insoniyatning umumiy qadriyatlarini xalqaro huquq makoniga joriy etish orqali nogironlarning huquqlarini himoya qilish kafolatlarini ishlab chiqishda ifodalanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlari, ularning huquqlari, erkinliklari, individual xususiyatlari, ijtimoiy imkoniyatlari va yuridik kafolatlari ushbu jarayonning markazida turadi. Bu konsepsiyaning shakllanishi xalqaro huquqni umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish va nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda to'liq ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekistonda bu g'oyalarning joriy etilishi, milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ularning huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilish imkonini beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Jabłoński, K., 2024. Forced sterilization in the state of California from 1909 to 1979: A historical and legal analysis. *Czasopismo Prawno-Historyczne*, 76(1).
2. Rieger, B., 2004. *The war come home: disabled veterans in Britain and Germany, 1914–1939*. By Deborah Cohen. Berkeley, Los Angeles, and London: University of California Press, 2001. Pp. xii+ 286. ISBN 0-520-22008-0. £ 35.00. *The Historical Journal*, 47(1).
3. Toombs SK. *Enforcing Normalcy: Disability, Deafness and the Body*. The Hastings Center Report. 1997.
4. Metzler I. *Disability in the Middle Ages: Impairment at the intersection of historical inquiry and disability studies*. History compass. 2011.
5. Kamilov F.O. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni institutsional takomillashtirish // *Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. – Toshkent: O'zMU, 2022.
6. Elliott, T.R. and Leung, P., 2005. Vocational rehabilitation: History and practice. In *Handbook of vocational psychology*.
7. Baynton, D.C., 2013. Disability and the justification of inequality in American history. *The disability studies reader*, 17(33).
8. Danforth, S., 2021. Independence, dependence, and intellectual disability: From cultural origins to useful application. *Philosophical Inquiry in Education*, 28(2).
9. Scotch, R., 2002. From good will to civil rights: transforming federal disability policy. *Palaestra*, 18(4).
10. Pruitt, Lisa J. "A Disability History of the United States." (2014).
11. Lucas, E., 1981. 1981 International Year of Disabled Persons. *Australian Occupational Therapy Journal*, 28(3).
12. Можаяева, Л.Е., 2018. Формирование международных стандартов в области защиты прав инвалидов. In *Основные тенденции и перспективы развития современного права*.
13. Degener, T., 2016. Disability in a human rights context. *Laws*, 5(3).
14. Silvers, A. and Stein, M.A., 2007. Disability and the social contract.
15. Ainscow, M., Slee, R. and Best, M., 2019. The Salamanca statement: 25 years on. *International Journal of inclusive education*, 23(7-8).
16. Johnson, D. and Longmore, S., 2023. How Healthy Is Democracy: The Role of Healthcare and Social Equity Considerations in the Governance of People. In *Rethinking Democracy and Governance*.

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416